



O‘QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH ASPEKTLARI

Aslonova O.P.

Qarshi davlat universiteti dotsenti

Tayanch so‘zlar: dunyoqarash, ilmiylik, tafakkur, tushuncha, sezgi, aspekt, jarayon, integratsiya.

Ключевые слова: мировоззрение, научное, мышление, понимание, интуиция, аспект, процесс, интеграция.

Key words: worldview, scientific, thinking, understanding, intuition, aspect, process, integration.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv-metodik adabiyotlar mazmuni va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash bo‘yicha amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida tizimini o‘qitishga qaratilgan ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash, innovatsion yondashuvlar, multimediyali ta‘lim resurslarini joriy etish imkoniyatlari kengaydi. Shu bilan birga, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning metodik ta‘minotini takomillashtirish zarurati ham mavjud.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning o‘ziga xos jihati talaba shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga hizmat qiladi. Buturdagi ta‘limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talabaga imkon qadar individual yondashish, uning shaxsini hurmat qilish va ishonch bildirishni taqozo etadi. Qolaversa, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-o‘quvchilar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruratini ifodalaydi.

Pedagogika fanidan izohli lug‘atda ham dunyoqarash tushunchasiga ko‘p ta‘rif va izohlar keltirilgan: “dunyoqarash - bu kishilarning olam va uning o‘zgarishi,

rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va hokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidir”. “Dunyoqarash - bu olam haqidagi yaxlit umumlashtirilgan bilimlar to‘plamidir”. Dunyoqarash tushunchasi “dunyoni his qilish”, “dunyoni tushunish” iboralari bilan uzviy bog‘liqdir.

Dunyoqarash faqat insongagina xos xususiyat bo‘lib, hayvonot dunyosi, boshqa narsa, buyumlar va mavjudotlar uchun bu hol yotdir [1].

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida dunyoqarash tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Dunyoqarash - dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqealikka va o‘z -o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari” [2].

Mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘qituvchilar o‘quv axborotlarining o‘quvchi bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

N. I. Ataqulovning “O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish yo‘llari” nomli metodik qo‘llanmasida umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik-psixologik imkoniyatlari, shakllari, usul va vositalari bayon qilingan bo‘lsa, professor E.O.Turdiqulov tadqiqotlarida uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarda umumbashariy ekologik dunyoqarashni shakllantirish texnologiyasi, umumbashariy ekologik dunyoqarashni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari muammosi o‘z aksini topgan va ekologik dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan uslubiy qo‘llanma va tavsiyalar ishlab chiqilgan [2].

A.T.Ayupov muharrirligida chop etilgan “Falsafa” o‘quv qo‘llanmasida dunyoqarash tushunchasi “insonning zaruriy ravishda dunyoni anglashi, tushunishi, bilishi natijasida yuzaga keladigan qarashlar sistemasi” tarzida ta’riflanadi. Dunyoqarash dunyoning inson ongidagi o‘ziga hos in’ikosi bo‘lib, insonning dunyoni va o‘z-o‘zini anglashining alohida shaklidir. Dunyoqarash insonning uni qurshab turgan dunyoga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan muayyan ko‘nikmalari, bilimlaridir. Dunyoqarash, shu bilan birga, insonning dunyoni ma’lum darajada ushunishi, anglashi, bilishi, baholashi va shular asosida amaliy o‘zlashtirishi hamdir. U insonning dunyoni bir butun yoki turli-tuman holda ko‘rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, tushunishi, insonning dunyodagi o‘z o‘rni va rolini belgilishi hamdir [2].

O‘quvchilar ilmiy dunyoqarashining shakllanish jarayoni uning tabiiy-ilmiy madaniyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu quyidagilarni anglatadi:

- o‘quvchi zamonaviy ilmiy metodning imkoniyati va vazifalarini tushunadi;



- zamonaviy sivilizatsiyaning asosi hisoblangan dunyoni anglash ilmiy shakllarining o‘ziga xosligini biladi;
- ilmiy ratsionallikning tarixiy tiplarini aks ettiruvchi tabiiy fanlarning metodologik ko‘rsatmalarini o‘zlashtiradi;
- zamonaviy fanlarning asosini tashkil qiluvchi tabiatning fundamental qonunlarini bilib oladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qitishda o‘quvchilarning barkamolligini ta’minlash, tabiat va ijtimoiy muhitga nisbatan ongli munosabatni namoyon etish, falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, estetik ideallar va e’tiqodlar yig‘indisi, shuningdek, moddiy borliq haqidagi qarashlarga muayyan o‘zgartirishlar kiritish, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish tabiiy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida biologik tushuncha, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradigan innovatsion va axborot texnologiyalardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Raximov A.K. O‘quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish jarayoniga innovatsion yondashuvni amalga oshirish metodikasi // O‘zMU xabarleri. - Toshkent, 2017. - №1/5. - B 259-260 .
2. Raximov A.K. O‘quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. - T.: “NAVRO‘Z”, 2018. - 160 b.
3. Рахимов А.К. Theoretical Basis for Formation Students’ Natural-Science Outlook // Eastern European Scientific Journal. - Dusseldorf-Germany, 2017. - №4. 50-54 p.
4. Saida Aroua, Maryline Coquide, Salem Abbes. Overcoming the Effect of the Socio-cultural Context: Impact of Teaching Evolution in Tunisia. *Evo Edu Outreach*. 2009. 2. P. 474-478.

РЕЗИОМЕ

Mazkur maqolada dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishdan boshlani haqida fikr bildirilgan. Ma’lumki, o‘quvchi o‘z sezgilari orqali faqat narsa va hodisalarning tashqi belgi va xossalari gina bilish bilan cheklanmay, uning ichki mohiyatini ham bilib oladi. Bu esa dunyoqarashni shakllantirish aspektlari hisoblanadi. Mazkur psixo-pedagogik jarayonning mazmuni maqolada o‘z ifodasini topadi.

РЕЗИОМЕ

В данной статье высказывается мнение, что познание мира и законов его развития начинается с развития научного мировоззрения. Известно, что ученик не ограничивается познанием посредством своих органов чувств только внешних признаков и свойств вещей и событий, но познает и их внутреннюю сущность. Это аспекты формирования мировоззрения. Содержание этого психолого-педагогического процесса выражено в статье.

SUMMARY

This article expresses the opinion that knowledge of the world and the laws of its development begins with the development of a scientific worldview. It is known that the student is not limited to knowing through his senses only the external signs and properties of things and events, but also cognizes their inner essence. These are aspects of worldview formation. The content of this psychological and pedagogical process is expressed in the article.